

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil).– 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Turayev Ruhiddin, Safayev Sanjarbek

YER TUZISH LOYIHALARINI YURITISHDA YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA
O'TKAZILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH 5-9

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU ALI IBN SINO –ILM FAN OSMONINING YULDUZ 10-13

Muminov Azizbek

ILMIY TADQIQOT HAMDA GEOSIYOSIY MANFAATLAR O'RTASIDA: TURKISTONDAGI
XORIJIY ILMIY EKSPEDITSİYALAR VA MUSTAMLAKACHILIK JARAYONLARI 14-17

Darmenov Rustem

HIND-ERON DINIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA CHIRIKRABOT
MADANIYATINING DAFN MAROSIMI 18-19

IQTISODIYOT FANLARI

Xushvaqto'v Jasur

O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI OMMAVIY BAHOLASH VA
PROGNOZLASH MUAMMOLARI 20-25

FILOLOGIYA FANLARI

Madiraimova Moxlaroyim

CONSONANT CLUSTERS IN ENGLISH AND THEIR ABSENCE IN UZBEK:
CHALLENGES FOR LEARNERS 26-30

Xaitbayeva Moxira

COMPARATIVE STUDY OF WORD ORDER IN UZBEK AND
ENGLISH SPEECH STRUCTURE 31-34

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

НЕДОПУСТИМЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В СТАДИИ ДОЗНАНИЯ:
ПРОБЛЕМЫ И ИХ ОСМЫСЛЕНИЕ 35-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Ganiyev Elyorbek

HUQUQIY KOMPETENTLIKNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 39-44

Xabibullayev Alimardon

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINING PEDAGOGIK
SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI 45-50

Abdullayeva Asila

FALSAFIY KONSEPTLARNI O'ZBEKISTON TARIXINING PEDAGOGIK
MATERIALLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH 51-56

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH MEKANIZMNING LOYIHASI 57-59

Yuldasheva Maftuna

O'QITUVCHILARNING KORREKTSION FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA
BAHOLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 60-65

<i>Samandarova Nargiza</i> IQTISODCHI MUTAXASSIS TAYYORLASHDA TIL VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI MASALALARI	66-69
<i>Raxmanova Nigora</i> SHARQ UYG'ONISH PEDAGOGIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM SIYOSATI VA STRATEGIYASIGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	70-75
<i>Kamolov Baxtiyor</i> EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARIDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	76-82
<i>Mavlonova Dildora</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI: TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY-METODOLOGIK TAHLIL	83-85
<i>Tojiboyeva Shohistaxon</i> AXBOROT MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG SAMARALI INTERFAOL METODLAR	86-89

AXBOROT MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG SAMARALI INTERFAOL METODLAR

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Fakultetlararo chet tili kafedrası dotsenti v.b.,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),

Annotatsiya: Ushbu tezisda, Axborot muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun tanqidiy fikrni shakllantiruvchi eng samarali interfaol metodlar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi, o'quv jarayonini yanada interfaol va samarali qilish imkoniyatini yaratmoqda. Tanqidiy fikrlash, o'quvchilarning analitik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar orasida guruhli munozaralar, loyiha asosidagi o'qitish va simulyatsiyalar kabilar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, interfaol metodlarning ta'siri misollar bilan ko'rsatilib, ularning ingliz tilini o'qitishda qanday qilib tanqidiy fikrni shakllantirishga yordam berishi haqida ma'lumotlar beriladi. O'qituvchilar uchun yangi yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini sifatli darajaga olib chiqish va talabalarni faol ishtirok etishga undash mumkinligi ko'rsatiladi. Tезisning asosiy maqsadi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini oshirishdir.

Kalit so'zlar: Axborot muhiti, tanqidiy fikr, interfaol metodlar, munozara, kreativlik, analitik fikrlash, tahlil qilish, resurslar, o'z-o'zini baholash, qobiliyat, o'qitish usullari.

THE MOST EFFECTIVE INTERACTIVE METHODS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FUTURE ENGLISH TEACHERS IN AN INFORMATION ENVIRONMENT

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Associate Professor, Department of Interfaculty Foreign Languages,

Termiz University of Economics and Service; PhD in Pedagogy

Annotation. This thesis analyzes the most effective interactive methods for developing critical thinking in future English teachers within an information-rich environment. The widespread use of information technologies in modern education creates opportunities to make the learning process more interactive and effective. Critical thinking plays a key role in developing students' analytical abilities. Among the methods, group discussions, project-based learning, and simulations are highlighted as particularly significant. The study provides examples demonstrating the impact of interactive methods and explains how they help foster critical thinking in English language teaching. It shows that applying new approaches can enhance the quality of the educational process and encourage active student participation. The main goal of the thesis is to improve the pedagogical competencies of future English teachers.

Key words: information environment, critical thinking, interactive methods, discussion, creativity, analytical thinking, analysis, resources, self-assessment, skills, teaching methods.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i4/n18>

Kirish. Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida bugungi kunda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari turli axborot manbalari va media resurslari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishishi, shu asosda o'z kasbiy va shaxsiy malakasini boyitish zarurati tug'ilmoqda. Bu jarayonda tanqidiy fikr (tanqidiy mulohaza, tanqidiy tafakkur) – shaxsni axborot xurujlari, stereotiplar, manipulyatsion xabarlar, soxta (feyk) yangiliklardan

himoyalovchi va mustaqil fikr yuritishga o'rgatuvchi eng muhim ko'nikma sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun tanqidiy fikr – chet tilidagi har qanday manbaga izchil yondashish, dalil-isbotlarni tekshirish, o'quvchilarga obyektiv axborot taqdim etish, manipulyatsiyadan xoli bo'lgan lingvistik va metodik faoliyatni amalga oshirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda zarur vosita hisoblanadi. Tanqidiy fikr (tanqidiy tafakkur) – shaxsning ma'lumotni izchil ravishda tahlil qilish, savol berish, muqobil qarashlarni inobatga olish, dalil-isbot, manba ishonchliligini tekshirish kabi amaliy bosqichlar orqali xolis xulosa chiqara olish qobiliyatidir.

Axborot muhiti – ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn nashrlar, raqamli platformalar orqali tarqalayotgan turli ko'rinishdagi xabarlar, maqola, infografika, audio/video roliklar jamlanmasi. Bugun o'quvchilar va o'qituvchilar barcha sohalarda axborotni onlayn tarzda tez va oson topadilar. Biroq bu muhitda:

Soxta xabarlar (fake news), manipulyatsion blogpostlar, yarim haqiqatga asoslangan maqolalar tez tarqalishi;

Raqobatli media bozorida ko'proq "klik" yoki "hissiy" mavzularni bo'rttirib ko'rsatish;

O'quvchi va o'qituvchilar bilish jarayonida chalkashlik, subyektiv yoki manipulyatsion ta'sirga berilish xavfi yuqori.

Tanqidiy fikrni shakllantirishda eng samarali interfaol metodlar

Debate (bahs-munozara) klublari. Debate – eng klassik, ammo samarador interfaol metodlardan biri bo'lib, o'quvchilar yoki talabalar ikki (yoki bir necha) jamoaga bo'linib, qarama-qarshi yoki muqobil fikrlarni himoya qiladi, dalil keltiradi, savollarga javob beradi, xulosa chiqaradi. Debate jarayonida:

Har bir jamoa axborot muhitidan turli dalillarni izlab topadi: ilmiy maqola, rasmiy statistik raqam, soxta xabarni rad etuvchi isbot, blogpost sharhlari va h.k.

Tanqidiy savollar bilan opponentni "urish", manipulyatsiya keltirishni rad etish, asossiz fikrlarni fosh etish, hissiy bayonotlardan xoli bo'lishga intilish rasmiy metod sifatida qo'llaniladi. O'qituvchi esa debate munozarasini boshqaradi, ishtirokchilarning dalil-isbot, fikr bildirish, raqib savollariga javob berish jarayonini baholaydi[1]. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi bu metodni dars jarayoniga ham tatbiq etishi, "Ingliz tili ta'limida raqamli darsliklar an'anaviy kitoblardan afzalmi?", "Soxta xabarni qanday aniqlash mumkin?" kabi mavzularda debate tashkil qilishi mumkin. Shu tarzda axborot muhitidan topilgan turli materiallarni tahlil qilib, bahsga jalb etish, tanqidiy fikrni shakllantiradi.

Keys-stadi (Case-study) usuli. Keys-stadi – muammoli vaziyatni, real voqelikdan olingan "ibratli" yoki "o'qituvchini o'ylantiruvchi" keysni guruhda tahlil qilish metodikasi. Bu metod bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ham turli "axborot muhitida duch kelgan voqea"ni tahlil qilish, dalil keltirish, manipulyatsion unsurlarni payqash qobiliyatini oshiradi. Masalan: "Siyosiy partiya targ'iboti bo'lgan blogpost" keys. Har bir guruh blogpostni o'qib chiqib, muallif kim, maqsadi nimada, dalillar asosiligi, hissiy bosim bormi-yo'qligini aniqlaydi, xulosa qiladi. Keyin guruhlar o'zaroga natijalarini taqdim etishadi, savollar berishadi, rad etish yoki qo'llab-quvvatlash orqali tanqidiy fikr jarayonida dalillar pishiq-puxta bo'lishini ta'minlashadi[2].

Rolli o'yin (Role-play) va dramatizatsiya. Rolli o'yin – o'quvchilar yoki talabalar muayyan ssenariy bo'yicha turli rollarni ijro etadi. Axborot muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun: Bir guruh "ishonchli jurnalistlar", boshqa guruh "shubhali bloggerlar", yana kimdir "fact-checker" yoki "rasmiy matbuot kotibi" bo'lib rolga kiradi. "O'quvchilar oldida manipulyatsion

xabarni targ'ib qilish, rad etish, ishonchli dalillarni taqdim qilish" kabi jarayon jonli o'yin shaklida bo'lib o'tadi. Bu jarayonda o'qituvchi ham ishtirok etib, "Sizning dalilingiz qayerdan?" yoki "Bu foto rasmiy manbaga tayanganmi?" kabi tanqidiy savollar berishi mumkin. Rolli o'yin jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari dalil keltirish, qarama-qarshi fikrga hurmat, subyektiv hissiy reaksiyadan yiroq holda tahlil qilish kabi tanqidiy xususiyatlarini rivojlantiradilar.

Brainstorming (G'oya yog'dusi) va "Fishbone" (baliq skeleti) analizi. Brainstorming: Tezkor g'oyalarni to'plash, so'ng ularni saralash va tanqidiy mezonlar bo'yicha baholash. Masalan, "Axborot muhitida o'qituvchini manipulyatsiyadan himoya qiluvchi 10 ta usulni ayting" deya guruhda brainstorming tashkil etiladi. Keyin 20-25 g'oya kelib chiqadi, o'quvchilar "qaysi g'oya real, qaysi biri asossiz?" deya tanqidiy tahlil qilishadi.

Fishbone: Muammo markazga yozilib, "sabab" va "oqibat" taraflari "baliq suyaklari" shaklida tarvaqaylab ketadi. O'quvchilar har bir suyak bo'ylab "qanday dalil bor?" yoki "manba ishonchliligi qancha?" kabi savollarni berishadi. Bu usul vizual ravishda masalani to'liq qamrab, tanqidiy mulohaza siyosatini oshiradi[3].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikr shakllantirish: samarali metodik yondashuv. Ingliz tili darslarida o'quvchilar ko'p hollarda turli davlatlardagi ijtimoiy-madaniy xabarlarga duch keladi. Shuning uchun har bir matn, maqola, videoni lingvistik nuqtayi nazar bilangina o'rganmasdan, "manbaning ishonchliligini tekshirish, dalillarni solishtirish, turli blog yoki OAVda bu mavzuga qanday yondashuv bor?" savollari bilan interfaol mashg'ulotlar tashkil etish juda foydali. Bu jarayon bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ham lingvistik malakasini, ham tanqidiy fikr qobiliyatini mustahkamlaydi. Stereotiplarning oldini olish, soxta xabarlarni rad etish, biror voqea haqida turli xorijiy nashrlarni qiyoslash – barchasi "metodik" amaliyot sifatida ham, "tanqidiy fikr" amaliyoti sifatida ham foydali.

Mahalliy voqelik misollarida tanqidiy fikr. Axborot muhitida o'qituvchi faqat xorijiy emas, balki o'z yurtimizdagi maqola, blog, rasmiy yoki norasmiy intervyularni tahlil qilishi mumkin. Masalan: Ijtimoiy tarmoqdagi o'zbek tilidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mavzudagi xabar. O'qituvchi "Bu xabarning manbasi kim, dalillar qay darajada, manipulyatsion ifodalar bormi?" deya savol berishi, Ba'zan rasmiy nashrlar bilan blogger chiqishini qiyoslash, kimning dalili ishonchliroq, nega? O'qituvchi bo'lajak metodik ishlarida ham shu yo'sinda o'zbek va ingliz tilidagi turli xabarlarda manipulyatsiya unsurlarini qiyosan baholash mashqlarini taklif etishi mumkin.

Tanqidiy fikrni mustahkamlash natijalarini baholash va uzluksiz rivojlantirish. Davriy test yoki keys: Har ikki haftada o'qituvchilarga biror "manipulyatsion matn" berilib, "nima uchun manipulyatsion?" degan savolga javob, dalillar keltirish so'raladi. Natija mezonlar bo'yicha (savol sifati, dalil, muqobil fikrni e'tiborga olish, xulosa pishiq-puxtaligi) baholanadi.

Portfolio: O'qituvchi fakt-checking, blogpost tahlillari, debate ishtiroki, bahs-munozaralardagi dalillar, reflexive xulosalarini e-portfolio tarzida to'playdi.

Xulosa. Axborot muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, xususan, har qanday fan o'qituvchisi, tanqidiy fikrga ega bo'lmasa, turli manipulyatsion xabarlar, soxta yangiliklar, asossiz dalillar ostida to'g'ri xulosa qilishdan ojiz bo'lib qoladi. Zamonaviy raqamli vositalar bu jarayonni engillashtiradigan qudratli manba bo'lib, onlayn forum, debate, rolli o'yin, keys-stadi, fact-checking, plagiatni aniqlash dasturlari, sun'iy intellekt bilan ishlash kabi usullarda tanqidiy fikrni boyitadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biri – o'zi mustaqil

dalil-isbot bilan xulosaga kela olish, so'ngra o'quvchilarga ham shu jarayonni o'rgatish. O'qituvchi tang situatsiyalarda media savodxonlik, manipulyatsiyadan himoyalanih, reallikni ajratishdagi metodlarni qo'llasa, o'quvchilarda ham tahliliy fikr, mustaqil baholash, xolis mulohaza shakllanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Askardjanovna, Kurbonova Ziyoda. "Chet tili darslarida bahs olib borish metodikasi". Science and innovation 1.1 (2022): 710-717.
2. Nizamov, Shakir Shukurovich, and Laziza Shukurova. "Fanlarni oqitishda keys-stadi texnologiyasini qollash". Научное знание современности 3 (2021): 17-22.
3. Aripova, Ulbosin. "Nofilologik yo'nalishi talabalariga ingliz tilidagi kommunikativ muloqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar va metodlar". Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar 2.17 (2024): 37-40.
4. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich. "Zamonaviy yoshlar mediasavodxonligining mexanizimlarini shakllantirish komponentlari". International scientific journal of Biruni 4.1 (2025): 4-13.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil). – 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.